

**XORIJIY TILLARNI O’QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ ИНОСТРАННЫХ
ЯЗЫКОВ**

INNOVATIVE APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Anvarova Madina Otabek qizi

Farg’ona davlat universteti talabasi

anvarovamadinaxon9@gmail.com

Annotatsiya: Innovatsiyalar turli ko‘rinishga ega. Xususan, ularning asosiy ko‘rinishlari yangi g‘oyalar, tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan‘anaviy yondashuvlar, odatiy bo‘lmagan tashabbuslar, ilg‘or ish uslublari kabilar shular jumlasidandir. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar haqida batafsil yozilgan.

Kalit so‘zlar: Chet tili, innovatsion yondashuvlar, zamonaviy metodlar, faollik prinsipi.

Аннотация: Инновации имеют разные формы. В частности, к их основным проявлениям относятся новые идеи, конкретные цели, направленные на изменение системы или направления деятельности, нестандартные подходы, необычные инициативы, передовые методы работы и т. д. В этой статье изучайте иностранные языки. Подробно написаны инновационные подходы к обучению.

Ключевые слова: иностранный язык, инновационные подходы, современные методы, принцип деятельности.

Abstract: Innovations have different forms. In particular, their main manifestations include new ideas, specific goals aimed at changing the system or direction of activity, unconventional approaches, unusual initiatives, advanced work methods, etc. In this article, learn foreign languages. Innovative approaches to teaching are written in detail.

Keywords: foreign language, innovative approaches, modern methods, principle of activity.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng, istiqlolning ilk yillaridanoq O‘zbekiston demokratik hayot qurishga kirishdi. Iqtisodiyot ham muhim ahamiyat kasb etdi. Amalga oshirilgan islohatlar salmog‘i yildan yilga kerak bo‘lsa kundan kunga ortdi. Faqat tub islohatlar emas balki boshqa javhalarda jumldan ta‘lim tizimida ko‘plab o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ayniqsa chet tillarini o‘rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko‘plab sharoitlar yaratilib berildi berildi. Bundan asosiy maqsad yoshlarning bilim saviyasini oshirish, chet tiliga bo‘lgan qiziqishiniyanada oshirish. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, “Hozirgi paytda xorijiy tillarni o‘rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bugun jahon hamjamiyati o‘ziga munosib o‘rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir”. Jumladan shu fikrlarning davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini” o‘rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror chet tillarini o‘rganish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunga kelib chet tiliga bo‘lgan talab judayam ortib bormoqda.

Chet tillarni o‘qitish metodikasi uchun fan, til va nutqni farqlash muhimdir. Zamonaviy tilshunoslik tilni bir guruh odamlar ongida mustahkamlangan ijtimoiy ahamiyatga ega kod va uning ishlash qoidalari sifatida tushunadi. Boshqacha qilib aytganda, til - muloqot uchun zarur bo‘lgan til vositalari va ulardan foydalanish qoidalari tizimi. Nutq deganda til tizimining muayyan aloqa aktlarida amalga oshirilishi tushuniladi. “Nutq” tushunchasiga jarayonning o‘zi ham, shu jarayonning mahsullari – nutqiy asarlar ham kiradi. Til va nutq bir hodisaning ikki tomonini, bir butunlikni tashkil etsa-da, har bir tomon uchun xos birliklar bilan harakat qiladi.

Ta‘lim tizimida innovatsiya orqali imkon qadar eng yuqori natijaga erishish ko‘zda tutiladi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta‘limda ham “innovatsiya”

tushunchasi “novatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat sifatida talqin qilinadi. Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish), deb ataladi

Chet til o‘qitish sistema, deb qaralganda, unda ikki tomon — o‘rgatuvchi va o‘rganuvchi ishtirok etadi. Muallim zimmasiga o‘quvchining o‘rganish faoliyatini tashkil etish — tashkiliy vazifa yuklariadi. O‘quvchi bajaradigan uchala ishni — tanishish, mashq qilish, qo‘llashni muallim tashkil qiladi. Darsdan tashqari mustaqil bajariladigan ishlarga oid ko‘nikma va malakalar hosil qilish ham muallimning tashkiliy vazifasiga kiradi. Muallimning navbatdagi vazifasi ta’lim-tarbiya berishdu. Ta’limiy vazifa deganda tushuntirib yoki ko‘rsatib berish, bayon etish, izohlash, to‘g‘rilash orqali o‘quvchiga til materialini o‘rgatish anglanadi. Chet til materialini muallim o‘rgatadi yoki darslik, magnitofon yozuvidan o‘rganish yo‘lini ko‘rsatadi, o‘quvchida qiyinchilik sezilsa, murakkab til hodisasini lo‘nda qilib sharhlab beradi.

O‘quvchilar vazifalarni tanishish, mashq qilish va qo‘llash metodlari orqali amalga oshirish mumkinligi yuqorida qayd etildi. Har bir metodning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Tanishish o‘quv materialini o‘rganishdagi birinchi qadamdir. Til birligini o‘rganishga kirishar ekan, o‘quvchi uning shakli (tovush tomonini og‘zaki nutqda aniq-ravshan eshitish yoki grafik timsolini yozma matndan ko‘rib o‘qiy olish), ma’nosi (predmet, hodisa, harakat bilan fikran bog‘lash) va qo‘llanilishi (boshqa birliklar bilan qo‘shilishi, qanday holatda ishlatilishi) bilan tanishadi. Shakl, ma’no va qo‘llanish har bir leksik yoki grammatik birlikda o‘rganiladigan uch tomondur. Ular bilan tanishish o‘quv birligini o‘zlashtirishning boshlanishi demakdir. Ushbu birlik xotirada saqlanishining asosiy shartlaridan biri uni eshitish va ko‘rish sezgilari yordamida idrok qilishdir. Shu paytda til birligi mashq qilish bosqichidan o‘tadi. Mashq qilish yo‘li bilan o‘rganilayotgan til hodisalari mustahkamlanadi, ularga oid

dinamik stereotip shakllanadi. Ushbu dinamik stereotip nutq jarayonida operatsiya maqomida ishga tushadi. Amaliy muloqot maqsadida til materialini qo‘llash uchinchi bosqich hisoblanadi. Q o‘llash davrida axborot almashish (ya’ni malaka hosil qilish) mashqlari bajariladi.

Faollik prinsipi chet tildagi nutqda astoydil qatnashish bilan chambarchas bog‘liq. Avvalo shuni bilish lozimki, tashqi faollik — ko‘p jumla aytish, ong ishtirokisiz bajariladigan mashqlar miqdori faollikning yetakchi ko‘rsatkichlari emas. Og‘zaki va yozma nutqni ijodiy egallashda, nutq faoliyati yuritishda o‘z ehtiyojini qondirishga intilish masalasi turadi. Faollikning asosiy belgilari xohish-istak, qiziqish, fikran intilish kabi ruhshunoslik tushunchalarida namoyon bo‘ladi. Chet til o‘rganishga kirishar ekan, o‘quvchi uni qiziqib egallay boshlaydi. o‘quvchining muvaffaqiyatga erishish darajasi uning faollik holatiga to‘g‘ri bo‘lishi tajribadan ma’lum. O‘rganilayotgan til o‘quvchiga quvonch bag‘ishlasa, faollik oshadi, aks holda sustkashlik sodir bo‘lib, qiziqish so‘na boradi. Faollik aqliy, hissiy va nutqiy kabi uch ko‘rinishdan iborat. Nutqni egallash hissiy quvonch va aqliy kamolot keltirgandagina faollik uchqunlari yashnay beradi.

O‘quv-tarbiya o‘choqlarining barcha turlarida faollik prinsipiga rioya qilib ish ko‘riladi. „Faollik“ terminining ma’nosi shunchalik kengayib ketdiki, hatto metodist-olimlar orasida ushbu so‘zni metod bilan birlashtirishgacha yetib borganlar topiladi. Fanda „aktiv metod“ termini paydo bo‘ldi. Holbuki, barcha metodlar faqat faollikni talab etadi, qoloq yoki sust metodlami, albatta, hech kim tavsiya etmaydi. Faollik tushunchasi bilan metod emas, balki prinsip fikran bog‘lanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Великанова А. В. Компетентностно-ориентированный поход к образованию / А. В. Вели-канова // Серия «Компетентностно-ориентированный поход к образованию». – Вып. 2 – Самара : Профи, 2002. – С. 92

2. Bekmurodova.U.B. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat., Toshkent 2012-yil.

3. N. Q. Xatamova, M.N. Mirzayeva. “INGLIZ TILI DARSLARIDA QO’LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR” (uslubiy qo’llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.

4. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2